

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**“YANGI TAHRIRDAGI O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING
DOLZARB MASALALARI”
MODULINING
O‘QUV-USLUBIY MAJMUASI**

“Davlat va huquq asoslari”
yo‘nalishi bo‘yicha akademik litseylar pedagog xodimlarini
malakasini oshirish kursi uchun

BUXORO – 2025

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil "27" dekabrda 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Davlat va huquq asoslari" yo'nalishi bo'yicha akademik litseylar pedagog xodimlarini malakasini oshirish kursining o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **Shoyev I.X.** – Buxoro davlat universiteti
"Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy
fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi,
t.f.f.d.(PhD)

Taqrizchi: **Rajabov Sh.A.** – Buxoro davlat universiteti
"Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy
fanlar" kafedrasida dotsenti, yu.f.n.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI	10
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	14
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	31
V. GLOSSARIY	33
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	42

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910-sonli Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrda “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli hamda 2022 yil 1 iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 296-sonli Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-sonli hamda 2023 yil 8 maydagi “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-67-sonli Farmonlarida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan rahbar va pedagog xodimlarning ta’limda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumining asosiy prinsiplarini, fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlarini, jamiyatning iqtisodiy asoslarini, respublikamizning ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishini, saylov tizimi, davlat hokimiyati, oliy va mahalliy organlarining tuzilishi, vakolatlari va jamiyatning asosiy yo‘nalishlarini muntazam takomillashtirish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari ta’minlanadi.

Modulning maqsad va vazifalari.

Modulning maqsadi: akademik litseylar pedagog xodimlari malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini muntazam yuksaltirish, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini mukammal o‘zlashtirish, uni hayotga keng targ‘ib-tashviqot qilish, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning moddama-modda ilmiy-amaliy sharhini xalqchil va sodda tilda tushuntirish, shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida yangi o‘quv dasturlari, darsliklar va boshqa qo‘llanmalarni tayyorlash bo‘yicha ilmiy-metodik chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish.

Modulning vazifalari:

- barcha ta'lim turlari va bosqichlaridagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish bo'yicha o'quv rejalari va ta'lim dasturlarini yangi tahrirdagi Konstitutsiya norma va qoidalariga moslashtirish;
- o'quvchi va talabalarga, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyani o'rgatish bo'yicha zamonaviy metodika asosida darsliklar, o'quv qo'llanmalari va maxsus adabiyotlarni yaratish;
- Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini o'rganish;
- Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ma'no-mazmuni hamda mohiyatini o'rganish;
- O'zbekistonda adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish;
- O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlatni barpo etish;
- akademik litseylar pedagog xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini muntazam yuksaltirishdan iborat.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining dolzarb masalalari” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumining asosiy prinsiplari;
- fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari;
- jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlari;
- jamiyatning iqtisodiy asoslari;
- O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi;
- O'zbekiston Respublikasi saylov tizimi;
- O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati, oliy va mahalliy organlarining tuzilishi va vakolatlari haqida **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- kompetensiyalarga asoslangan ta'lim (competence-based learning) modelidan samarali foydalanish;
- ta'limni insonparvarlashtirish asosida kasbiy malakalarni uzluksiz rivojlantirish;

- raqamli va bulut texnologiyalari asosida o'qituvchilarni hamkorlikda ishlashini tashkil etish;
- seminar mashg'ulotlarini o'tkazishning zamonaviy usullarini qo'llash;
- o'quv materiallarini yaratish modellaridan keng foydalanish;
- loyiha ishlarini tashkillashtirish va baholash **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- kasbiy-pedagogik ta'lim mazmunini individuallashtirish;
- pedagogik mahoratni namoyish etishda ilg'or tajribalardan foydalanish;
- kasbiy va kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga doir metod va texnologiyalarni to'g'ri tanlash;
- kasbiy kompetentlik sifatleri va pedagogik mahorat elementlarini o'zlashtirish;
- pedagogda kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish;
- kreativ yondashuv asosida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mazmunini shakllantirish;
- zamonaviy o'quv materiallarini (Sillabus, O'UM, keyslar banki, assessmentlar bazasi, loyiha ishlari va boshq.) yaratish texnologiyalaridan samarali foydalanish;
- ta'limda innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- ma'ruza mashg'ulotlarini o'tkazishning innovatsion usullarini qo'llash;
- pedagogik dizayn asoslaridan kasbiy faoliyatda samarali foydalanish;
- kasbiy kompetentlik, pedagogik mahoratga doir xorijiy va mahalliy tajribalarni umumlashtirish;
- muloqot shaklidagi interaktiv ma'ruzalar o'tkazish **malakalariga** ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- pedagogda kasbiy kompetentlik sifatlarini rivojlantirish;
- pedagogik muloqotni samarali tashkil etish;
- kasbiy-pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlovchi kreativ pedagogika asoslarini egallash;
- kreativ yondashuvdan o'quv manbalari, o'quv kontentini samarali yaratishning muhim omili sifatida foydalanish;
- ta'limda ilg'or xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlilini amalga oshirish;
- pedagogik dizayn va zamonaviy o'quv kontentlarini yaratish;
- pedagogik mahorat, kompetentlik va kreativlikdan kasbiy faoliyatda keng foydalanish kabi **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

O'QUV MODULI BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat					
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi				Mustaqil ta’lim
			Jami	jumladan			
				Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot	
1.	Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ishlab chiqish konseptual asoslari.	2	2	2	-	-	-
2.	Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari.	2	2	2	-	-	-
3.	Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari.	2	2	-	2	-	-
4.	Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari.	2	2	-	2	-	-
JAMI		8	8	4	4	-	-

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ishlab chiqish konseptual asoslari. (2 soat)

O'zbekistonning mustaqillikka qadar konstitutsiyaviy tarixi. TASSR, Buxoro va Xorazm xalq sovet respublikalarining Konstitutsiyalari va ularning mustabid tuzumga xos jihatlari. O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy islohotlarning hususiyatlari va asosiy bosqichlari. 1992 yilgi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasining tayyorlanishi, umumxalq muhokamasidan o'tkazilishi, qabul qilinishi va amalga kiritilishi.

2-mavzu: Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari. (2 soat)

O‘zbekiston Respublikasida hokimiyatning bo‘linish prinsipi. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning xalq nomidan hokimiyatni amalga oshirishi. O‘zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligi prinsipi va umuminsoniy qadriyatlar.

Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipi tushunchasi va mohiyati. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konstitutsiyaviy asoslari. O‘zbekiston Respublikasi – xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli sub’ekti. O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplari.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mashg‘ulot: Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari. (2 soat)

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqishi va uni qabul qilishdagi ijtimoiy zaruriyat. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya loyihasining tayorlanishi, qabul qilinishi va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Xalqaro huquq normalarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi ifodasi.

2-mashg‘ulot: Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari. (2 soat)

O‘zbekiston Respublikasida shaxsning huquqiy holati tushunchasi. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik. O‘zbekiston Respublikasida inson va fuqaroning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va burchlari tizimi. Shaxsiy huquq va erkinliklar. Siyosiy huquqlar. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar. O‘zbekistonda inson hamda fuqaro huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlari. Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari.

O‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar

Mazkur modul ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:


- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI (AMALIY MASHG‘ULOTLAR BO‘YICHA)

1. “Venn diagrammasi” grafik organayzeri (GO)

Ta’lim oluvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarini shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

GO quyidagi sxema (grafik tasvir)ga ega bo‘lib, topshiriq shu sxema asosida bajariladi:



Grafik organayzer ta’lim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

2. “Keys-stadi” texnologiyasi

“Keys-stadi” (ingliz tilida “case” – metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi ta’lim oluvchilarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U ta’lim oluvchilarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o‘rganish va tahlil qilishga o‘rgatadi.

Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi.


Bular quyidagilardir: ta’lim shakllari, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari, ta’lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan

olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to'plash, ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi ta'limiy aloqaning usul va vositalari, o'quv natijalari.

3. “Konseptual jadval” GO

Ta'lim oluvchilarni o'rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlarini bo'yicha taqqoslashga o'rgatadi. Undan foydalanishda ta'lim oluvchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Mashg'ulotlar chog'ida GOdan quyidagicha foydalaniladi:



4. “Klaster” GO

“Klaster” (g'uncha, to'plam, bog'lam) grafik organayzeri puxta o'ylangan strategiya bo'lib, uni ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda qo'llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

5. “Konferensiya” metodi

Texnologiya ta'lim oluvchilarga ular tomonidan mavzu bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni erkin bayon qilish, mazmunini o'z fikri, hayotiy misollar yordamida yoritilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'quv jarayonida texnologiyadan foydalanish o'rganilayotgan muammo bo'yicha muayyan masalalarni hal etish, ma'lum jarayon (voqelik, hodisa)ning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo'llarini topish asosida ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fikrini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqarib olish ko'nikma, malakalarini hosil qiladi.

Texnologiya tarbiyaviy xarakterga ega bo'lib, ta'lim oluvchilarga o'zlarida ijobiy fazilatlarni ko'proq shakllantirish, salbiy xislatlardan esa voz kechishlarida yordam beradi.

6. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi

Metod ta’lim oluvchilar tomonidan muayyan bo’lim yoki boblar bo’yicha o’zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida pedagogik faoliyatni tashkil etishga oid rejani ishlab chiqish ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo’llash ta’lim oluvchilardan o’rganilayotgan mavzu mazmunini puxta o’zlashtirish, asosiy g’oyalarni umumlashtirish, ma’lum tizimga solish layoqatiga ega bo’lishni taqozo etadi.

Metod ta’lim oluvchilar faoliyatini juftlik, guruh va jamoa asosida tashkil etish imkonini beradi. Uni ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish, volontyorlik harakatlarini olib borish, pedagogik amaliyotni tashkil etishda qo’llash yanada samarali hisoblanadi.

Odatda rejani ishlab chiqishda pedagogik vaziyat, ta’lim oluvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ma’naviy-ma’rifiy ishning yo’nalishi, mazmuni hamda samaradorlikka erishish imkoniyatiga egalik inobatga olinadi.

7. “FSMU” metodi

Grafik organayzer ta’lim oluvchilarda o’rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash (misollar bilan asoslash), bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim oluvchilarga quyidagi sxema bilan ishlash tavsiya etiladi:


№	Тушунчалар	(Ф)	(С)	(М)	(У)
1.	Таълим методлари				
2.	Таълим воситалари				
3.	Таълимни ташхис қилиш				

8. “Qarorlar shajarasi” (“qaror qabul qilish”) strategiyasi

Strategiya muayyan fan asoslariga oid bir qadar murakkab mavzularni o’zlashtirish, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, muammo yuzasidan bildirilayotgan bir nechta xulosa orasidan eng maqbul hamda to’g’risini topishga yo’naltirilgan texnik yondashuvdir. U avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qarorlarni yana bir bora tahlil qilish, uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Ta’limda strategiyani qo’llash o’rganilayotgan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish) uchun ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variantni tahlil qilish, maqbul va nomaqbul jihatlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Unga ko’ra mashg’ulotlarda ta’lim oluvchilar quyidagi chizma asosida ishlaydi (u yoki bu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadi):



III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-mavzu: Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ishlab chiqish konseptual asoslari. (2 soat)

REJA:

O‘zbekistonning mustaqillikka qadar konstitutsiyaviy tarixi. TASSR, Buxoro va Xorazm xalq sovet respublikalarining Konstitutsiyalari va ularning mustabid tuzumga xos jihatlari. O‘zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy islohotlarning xususiyatlari va asosiy bosqichlari. 1992 yilgi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasining tayyorlanishi, umumxalq muhokamasidan o‘tkazilishi, qabul qilinishi va amalga kiritilishi.

KONSTITUTSIYA (lot. constitutio — tuzilish, tuzuk) — davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi.

Konstitutsiya davlatchilik belgisidir. Birbiridan farqlanuvchi yuridik va haqiqiy (faktik) Konstitutsiya tushunchalari bor. Yuridik Konstitutsiya ijtimoiy munosabatlar doirasini tartibga soluvchi ma’lum huquqiy normalar tizimi. Haqiqiy Konstitutsiya esa — shunday munosabatlarning o‘zi, ya’ni real mavjud munosabatlardir. Konstitutsiya o‘z shakliga ko‘ra, kodekslashtirilgan, kodekslashtirilmagan va aralash turlarga bo‘linadi. Kodekslashtirilgan Konstitutsiya — konstitutsiyaviy xususiyatga ega barcha asosiy masalalarni tartibga soluvchi bir butun yozma hujjat hisoblanadi. Agar ayni o‘sha masalalar bir necha yozilgan hujjatlar bilan tartibga solinsa, u holda Konstitutsiya kodekslashtirilmagan hisoblanadi. Aralash turdagi Konstitutsiya parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar va sud pretsedentlari bilan birga, odatlar va nazariy sharxlarni ham o‘z ichiga oladi, ya’ni qisman yozilgan bo‘ladi. O‘zgartirish kiritish usuli bo‘yicha Konstitutsiya yumshoq va qattiq turlarga bo‘linadi. Ularning birinchisi oddiy qonun qabul qilish yo‘li bilan

o'zgartirilishi mumkin. Ikkinchisi maxsus takomillashtirilgan tartibda (parlament a'zolari ovozining malakali ko'pchiligi, ba'zan esa referendum o'tkazish, tuzatishlarni muayyan miqdordagi federatsiya sub'ektlari tomonidan ratifikatsiyalash va sh. k.) o'zgartirilishi mumkin. Amal qilish muddatlari bo'yicha Konstitutsiyalar doimiy va muvaqqat turlarga bo'linadi.

Davlat faoliyatining turli sohalarida Konstitutsiyaga rioya qilinishini nazorat etish Oliy sud yoki Konstitutsiyaviy sud zimmasiga yuklanadi. «Konstitutsiya» atamasi Qad. Rimdayoq bor edi (imperator K. si deb atalgan qonun). Amir Temur «Tuzuklar»i Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo'lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda O'rta Osiyo xalqlari taqdiriga kuchli ta'sir o'tkazgan. Yevropadagi tarixiy taraqqiyot hoz. kunda amalda bo'lgan Konstitutsiya larning 2 guruhini vujudga keltirdi. 1-guruh — hoz. zamon sharoitlaridan keskin farq qiluvchi sharoitlarda qabul qilingan eski Konstitutsiya lar. Bu xildagi Konstitutsiya larga 1787 y. gi AQSh Konstitutsiyasi, 1831 y. gi Belgiya K. si, 1874 y. gi Shveysariya K. si misol bo'la oladi. 2-guruhga 20-a. ning 2-yarmida qabul qilingan «yangi avlod» K. lari kiradi. Ular dastlabki Konstitutsiyalardan xuquq va erkinliklar institutining, Konstitutsiyaning himoya qilish mexanizmlari va ijtimoiy muammolarga murojaat kilish mexanizmlarining kengayishi natijasida konstitutsiyaviy tartibga solish hajmining ko'payishi bilan farq qiladi.

1917 yili Rossiyada yuz bergan inqiloblar O'rta Osiyo xalqlari tarixida ham o'zgarish yasadi. Avvalgi davlatlar qulatilib, o'rniga yangi tuzumlar, yangi davlatlar qurildi. Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalari, keyinchalik esa milliy-hududiy chegaralanish natijasida milliy respublikalar tuzildi. Bu respublikalarning har birida konstitutsiya bor edi. Ular bilan tanishib chiqaylik.

O'zbekiston konstitutsiyalari tarixini ikki bosqichga bo'lish mumkin. Birinchisi 1917–1922 yillarni, ikkinchisi esa 1924–1992 yillarni o'z ichiga oladi.

Turkiston ASSR.

Dastlabki bosqichdagi qomuslarning birinchisi 1918 yilgi ***Turkiston ASSR konstitutsiyasi*** bo'lib, u 1918 yil 15 oktabr kuni Sovetlar o'lkasining VI s'ezdida 1918 yil 10 iyulidagi RSFSR konstitutsiyasi asosida qabul qilingan edi. Turkiston ASSR konstitutsiyasi olti bo'limdan iborat edi:

I – Mehnatkash va eksplutatsiya qilinuvchi xalq huquqlari deklaratsiyasi;

II– Umumiy qoidalar;

III – Sovet hokimiyatining tuzilishi;

IV – Aktiv va passiv saylov huquqi;

V – Budjet huquqi;

VI – Turkiston ASSR gerbi va bayrog'i haqida.

Turkiston ASSR konstitutsiyasining tuzilishi va mazmunining quyidagi

prinsiplarini ko'rsatib o'tish mumkin: konstitutsiyada Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi ekanligi, u o'z tarkibiga boshqa davlat tuzilmalarini qabul qilishi va ularni o'z tarkibidan chiqarishi, qonunlar qabul qilish huquqlari va boshqa davlatlar bilan xalqaro aloqalar o'rnatish, moliyaviy ishlarni o'zi hal etish kabi huquqlari. Shuningdek, Turkiston ASSRning boshqa sohalardagi vakolatlari ham juda keng berilgan bo'lib, bu avtonom respublikaning tushunchasiga umuman to'g'ri kelmas edi, chunki bu davrga kelib Rossiyadagi fuqarolar urushi tufayli Turkiston bilan vaqtincha aloqalar yaxshi yo'lga qo'yilmay qolgan edi.

Turkiston ASSRning **ikkinchi konstitutsiyasi** 1920 yil 24 sentabrda Turkiston Sovetlarining IX s'ezdida Butunittifoq Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tomonidan sanksiyalangan «Turkiston ASSR RSFSRning bir qismi sifatida avtonomdir» degan qarori ostida qabul qilinib, Turkiston ASSRning «qanday yashash huquqi» aniq qilib qo'yilgan edi.

Turkiston ASSRning bu konstitutsiyasi 6 bo'lim va 20 bobdan iborat bo'lib, 109 moddani o'z ichiga olgan. 1-bo'lim «Mehnatkash va ekspluatatsiya qilinuvchi xalq huquqlari deklaratsiyasi», 2-bo'lim «RSFSR konstitutsiyasi, asosiy nizom» deb atalib, 1918 yilgi RSFSR konstitutsiyasining asl nusxasidan olingan. RSFSR bilan o'zaro munosabatlari hamda Turkiston ASSRning ijtimoiy va davlat tuzilishidagi huquqlari 3-bo'limda o'z aksini topgan.

IV bo'limida esa markaziy va mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining faoliyatini tashkil etishga bag'ishlangan edi. Unda markaziy organ to'qqiz kishidan iborat bo'lishi, Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Sovetlar s'ezdining Prezidiumi, Xalq Komissarlari Sovetlarini tashkil etish tartib-qoidolari ko'rsatib berilgan edi.

Avtonom respublikaning Xalq Komissarlari Sovetlari tizimiga viloyatlar, uezdlar, shaharlar, qishloqlarning ishchi va qizil armiyachi sovetlari, deputatlari va ularning qo'mitalari kirdi. Konstitutsiyaning 5-bo'limida aktiv va passiv saylov huquqi o'rnatilib, saylanish qoidalar va saylangan deputatlarni muddatidan oldin chaqirib olish kabi tartiblar belgilangan edi. Oxirgi 6-bo'lim Turkiston ASSRning moliya va budjetiga bag'ishlangan edi.

Turkiston ASSRning 1920 yildagi Konstitutsiyasi o'sha paytdagi Rossiyaning milliy qonuniyatlari asosida o'zlarining yashash tarziga asoslanib qabul qilingan edi.

Xorazm XSR.

Hozirgi O'zbekiston hududidagi navbatdagi konstitutsiya Xorazm (Xiva) xonligi o'rnida tashkil etilgan Xorazm XSR konstitutsiyasi edi. 1920 yil 30 aprelda Butunxorazm Sovetlarining s'ezdi o'tkazilib, uning **birinchi konstitutsiyasini** qabul qilgan. Konstitutsiya 13 bob va 37 moddadan iborat bo'lib, davlat va mahalliy hokimiyat organlarining tuzilishi, ijtimoiy tuzum va

fuqarolarning huquq va erkinliklari, Sovetlarga saylov o'tkazish tartib-qoidalarini o'z ichiga olgan. Sovetlarga saylovlarda oddiy xalq bilan bir qatorda savdogarlar va ruhoniylarning ham saylov huquqidan foydalanishiga vaqtincha ruxsat berilgan.

Konstitutsiyada xon va uning qarindoshlariga tegishli mulklar davlat mulki deb e'lon qilingan. Shuningdek, ishlab chiqarish vositalaridan xususiy mulk sifatida foydalanishga ruxsat berilib, pul bilan erkin muomala qilish huquqi cheksiz deb belgilangan.

Bu konstitutsiya milliy-davlat tuzumiga qarshi tuzilgan bo'lib, Sovetlar hokimiyatini o'rnatishning birinchi bosqichida mamlakatdagi ishlab-chiqarish vositalarini xususiy mulkligicha saqlash, yerga shaxsiy egalik qilish, uni sotish, har kimning o'z boyliklaridan erkin foydalanish huquqlari cheklashlarsiz ruxsat etilgan.

1923 yil 20 oktabrda Butunxorazm Sovetlarining IV s'ezdida **ikkinchi konstitutsiya** qabul qilindi. Konstitutsiya 5 bo'lim, 12 bob, 44 ta moddadan iborat edi. 1-bob «Xorazmda qanday huquqlardan mehnatkash xalq foydalanmoqda» deb boshlanib, unga mazmunan ma'lum o'zgartirish kiritilgan, ya'ni saylovda qatnashish huquqi va sovetlarga saylanish tartib qoidalarini belgilangan. Bu konstitutsiyada quyidagi tabaqadagi odamlar saylash va saylanish huquqlaridan mahrum etilgan: ishlamasdan birovlarining kuchidan foydalanayotganlar, ishlamasdan pul topayotganlar, dallollar, ruhoniylar va hokazo.

Buxoro XSR.

1920 yil sentabr oyida Buxoroga kommunistik intervensiya natijasida Buxoro amorati qulatildi va uning o'rnida Buxoro Xalq Sovet respublikasi tuzildi. 1921 yil 18–23 sentabrda bo'lgan Butunbuxoro xalq vakillarining 2-qurultoyida demokratik ruhda **Buxoro XSR konstitutsiyasi** qabul qilindi. Buxoro tarixidagi dastlabki konstitutsiya fuqarolarning demokratik huquq va erkinliklarini qonun yo'li bilan mustahkamladi. Konstitutsiyada davlatni idora etish uchun xalqning barcha tabaqa vakillarining ishtiroki ta'minlandi. Xususiy mulk va savdo-sotiq erkinliklari konstitutsiyada o'z ifodasini topdi.

Buxoroda o'rnatilgan tuzum xalq demokratik respublikasi edi. Buxoro XSRning konstitutsiyasi barcha fuqarolarga teng siyosiy huquq berdi, milliy tengsizlikni yo'qotdi. Konstitutsiyaga ko'ra, Buxoro XSR ning oliy organi Butunbuxoro xalq vakillari qurultoyi bo'lib, u har 2 ming saylovchiga bir vakil saylanadigan 350 a'zodan iborat edi. Qurultoy yiliga bir marta chaqirilar va unda respublika konstitutsiyasini qabul qilish, o'zgarishlar kiritish, hukumatning hisoboti va davlat budjetni tasdiqlash kabi muhim masalalar ko'rilar edi.

Konstitutsiyaga ko'ra, qurultoylar o'rtasida qonun chiqaruvchi va nazorat qiluvchi oliy organ Butunbuxoro MIK hisoblanadi. Qurultoyda Butun Buxoro MIK raisi qilib Usmonxo'ja Po'latxo'jayev saylandi (1922 yil avgustda bo'lgan 3-

qurultoyda bu lavozimni Porso Xo'jaev egalladi). Konstitutsiyaga muvofiq, Xalq Nozirlar Sho'rosi davlat hokimiyatini ijro qiluvchi va boshqaruvchi oliy organi sifatidagi o'z vazifasini saqlab qoldi.

Qurultoyda milliy masalaga katta e'tibor berildi. Buxoro MIK huzurida Omongeldi Omonov boshchiligida Turkman bo'limi tuzildi. Keyinchalik shu asosda Turkman avtonom viloyati tashkil qilinib, unga milliy muxtoriyat huquqi berildi. Turkman va tojik xalqi uchun madaniy-ma'rifiy va boshqa muassasalar ochildi.

Ammo mazkur konstitutsiyaga 1923 yil sentabr oyida o'zgaritirishlar kiritilib, sovet andozalariga moslashtirib chiqildi.

O'zbekiston SSR.

Endi ikkinchi bosqich, ya'ni milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilganidan keyingi davr konstitutsiyalariga nazar tashlaylik. Ma'lumki, 1924 yilda amaldagi uchta respublika tugatilib, ularning hududlari bo'lib yuborildi va ulardagi konstitutsiyalar ham bekor qilindi.

Yangi tuzilgan O'zbekiston SSR tarixidagi **dastlabki konstitutsiya** loyihasi Sovetlarining II s'ezdida 1927 yil 27–31 mart kunlari tasdiqlandi. Bu konstitutsiyada ham boshqa Ittifoq respublikalari konstitutsiyalaridagidek davlat hokimiyati vakolatlarini «ishchi dehqon va qizil askar Sovetlarining deputatlari amalga oshiradilar», deb belgilangan edi.

O'zbekiston tarkibiga Tojikiston Avtonom respublikasi kiritilgandi. Tojikiston ASSRga ko'pgina vakolatlar berilgan bo'lib, ular o'rtasidagi aloqalarga maxsus bo'lim bag'ishlangandi.

SSSR o'z tarkibidagi respublikalarni yanada Markazga qaram qilib turish uchun ular o'rtasidagi nizolarni ularning konstitutsiya va qonunlaridan boshlab o'z siyosatida ham doimo nazarda tutib kelgan. O'zbekiston tarkibiga kiritilgan Tojikiston ASSRga o'zining Xalq Komissarlar Soveti tarkibini tuzish va unga xohlagan vaqtda o'zgartirish kiritish huquqlarini, O'zbekiston SSR qabul qilgan qonunlar qaytadan ko'rib chiqilib, o'zlari tomonidan tasdiqlangandan so'ng kuchga kiritish huquqlari va boshqa ko'pgina vakolatlar berilgandi. Shuningdek, konstitutsiyada milliy davlat tuzilgani, xususiy mulk bekor qilingani va davlat organlarini tuzish tartibi, qonunchilik, huquq-tartibot organlarining dasturiy ko'rsatmalari va ularni tashkil etish qoidalari ko'rsatib berilgan edi. O'zbekistondagi barcha tabiiy boyliklar, zavodlar, fabrikalar davlat mulki deb e'lon qilingandi.

1937 yil 14 fevralda Butuno'zbekiston Sovetlarining favqulodda VI s'ezdi O'zSSRning **ikkinchi konstitutsiyasini** SSSRning 1936 yilgi konstitutsiyasiga mos ravishda qabul qildi. Bu konstitutsiya 13 bobdan iborat edi:

I bob – ijtimoiy tuzilishi;

- II bob – davlat tuzilishi;
- III bob – O‘zSSR davlat hokimiyatining oliy organlariga bag‘ishlangan;
- IV bob – O‘zSSR davlati idora organlari haqida;
- V bob – Qoraqalpog‘iston ASSR davlat hokimiyati oliy organlarini tuzilishi belgilangan;
- VI bob – Qoraqalpog‘iston ASSR davlat idora organlari haqida;
- VII bob – davlat hokimiyati mahalliy organlarning faoliyat prinsiplari belgilangan;
- VIII bob – O‘zSSR budjeti to‘g‘risida;
- IX bob – sud va prokuratura organlari tuzilishi;
- X bob – fuqarolarning asosiy huquqlari va burchlari haqida;
- XI bob – saylov tizimiga bag‘ishlangan;
- XII bob – gerb, bayroq, poytaxt;
- XIII bob – konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibi.

O‘zbekiston SSRning ikkinchi konstitutsiyasi SSSRning 1936 yilgi konstitutsiyasini so‘zma-so‘z takrorlaydi.

1978 yili O‘zSSRning **uchinchi konstitutsiyasi** qabul qilindi. 1978 yil 19 mart kuni O‘zSSRning yangi konstitutsiyasi loyihasi mutbuotda e‘lon qilindi. O‘zSSR Oliy Sovet Prezidiumi tomonidan 15 aprel kuni Oliy Sovet sessiyasida konstitutsiya loyihasi SSSRning 1977 yil 7 oktabrida amalga kiritilgan konstitutsiyasiga mosligi muhokama qilinib, ayrim moddalariga o‘zgartirishlar kiritildi va 19 aprel kuni qabul qilindi.

Konstitutsiyaning tuzilishi kirish qismidan, XI bo‘lim, 21 bob va 183 moddadan iborat edi. Ushbu konstitutsiyada ham sovet hokimiyatini amalga oshish qoidalari va ishchi-dehqon sinfining kommunistik jamiyat qurishdan iborat oliy maqsadi belgilab berilgan edi. Masalan, konstitutsiyaning kirish qismida «xalq davlat hokimiyatini Sovetlar orqali amalga oshiradi» deb, «kommunistik partiyaning jamiyat hayotidagi rahbarligi va yetakchilik qilishi»ga ko‘p ta‘rif berilgan.

70 yildan oshiqroq vaqt davomida qabul qilingan konstitutsiyalarda xalq hokimiyati haqida chiroyli so‘zlar bayon qilingan, lekin amalda joylarda tuzilgan viloyat, tuman, shahar, qishloq va posyolka sovetlari kommunistik partiya dasturlari, rejalari bilan tashkil qilingan, soxta saylovlar o‘tkazilgan jamiyat va davlat hayotida hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmagan.

Shunday qilib, O‘zbekiston SSR o‘z tarixida uchta konstitutsiyaga ega bo‘lgan.

Respublikaning yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqish zarurligi to‘g‘risidagi g‘oya XII chaqiriq Oliy Kengashning 1990 yil martida bo‘lib o‘tgan birinchi sessiyasidayoq yangragan edi. Oliy Kengashning 1990 yil iyunda bo‘lib o‘tgan ikkinchi sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti

I.A.Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya komissiyasini tashkil etildi. Komissiya tarkibiga viloyatlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi vakillari, xo‘jaliklar, korxonalarning rahbarlari, davlat va jamoat idoralari rahbarlari, olimlar va xalq xo‘jaligi mutaxassislari kirdi.

1991 yil 12 aprelda I.A.Karimov boshchiligidagi Konstitutsiya komissiyasining birinchi majlisi bo‘lib o‘tdi. Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishga tayyorgarlik sohasidagi butun ishni markazlashtirib turish maqsadida Konstitutsiya komissiyasi a‘zolaridan hamda taniqli olimlar va mutaxassislardan 32 kishidan iborat ishchi guruhi tuzildi. Uning tarkibiga Oliy Kengashning qator qo‘mitalarining, vazirliklar, prokuratura, sud organlarining rahbarlari, olimlar, Respublika Prezidenti devoni va Oliy Kengash idorasining mas‘ul hodimlari kirdilar.

Konstitutsiya komissiyasining raisi ishchi guruhi oldiga aniq vazifa qo‘ydi: jahon tajribasi o‘rganilsin, boshqa mamlakatlarning inson huquqlari borasida, demokratiya va qonunchilik sohasida qo‘lga kiritgan yutuqlari asosida tushunarli siyosiy va yuridik xujjat yaratilsin.

Konstitutsiya bu mahobatli asar, butun qonunchilikning umurtqa pog‘onasi. Qanday bo‘lishi lozimligini oldindan bilmay turib, uning Konstitutsiya komissiyasining topshirig‘iga binoan, ishchi guruhi, eng avvalo bo‘lajak Konstitutsiyaning konsepsiyasini ishlab chiqishga kirishdi. Uchta konsepsiya tayyorlandi. Falsafa va huquq institutining konsepsiyasi (u Fanlar akademiyasi rayosati tomonidan muxokama qilindi va tasdiqlandi). Siyosatshunoslik instituti konsepsiyasi va Prezident devonining davlat sho‘basi tayyorlagan konsepsiya. Ishchi komissiyasining bir guruh a‘zolari bu konsepsiyalarning g‘oyalarini umumlashtirib, ulardan bitta asos ishlab chiqdilar. So‘ngra Konstitutsiya komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlangan ana shu konsepsiya asosida ish boshlab yuborildi.

Loyihaning 158 moddadan iborat dastlabki varianti 1991 yil noyabrgacha tayyorlab berildi. Loyihaning ikkinchi ishchi varianti 149-moddadan iborat bo‘ldi. Uchinchi qilingan variant 137-moddani tashkil qilar edi. Matbuotda e‘lon qilinishi oldidan yana bir bor diqqat bilan o‘rganilib, 127-moddadan iborat tartibda, mazmundor qilib tuzildi. Konstitutsiya komissiyasining qarori bilan loyiha 1992 yil 26 sentabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e‘lon qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasining muxokamasi barcha mehnat jamoalarida, korxonalar, o‘quv yurtlarida, idoralar va vazirliklarda, tumanlar, viloyatlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi faollarining yig‘ilishlarida, matbuotda, televidenie va radioda, xalq demokratik partiyasining Markaziy Kengashlari va mahalliy tashkilotlarda, kasaba uyushmalari hamda xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlarida, ijodiy uyushmalarda, olimlarning

birlashmalarida va boshqa tashkilotlarda bo‘lib o‘tdi.

Konstitutsiya komissiyasiga kelgan fikrlar, taklif va mulohazalarni hisobga olgan holda muhokamani davom ettirish uchun 1992 yil 21 noyabrda yana bir bor matbuotda e‘lon qilindi. Respublika fuqarolari loyihaga kiritilgan o‘zgartirishlar va aniqliklar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

«Yangi Konstitutsiyamizning ijobiy jihatlari, ya‘ni tomonlari, avvalgi Konstitutsiyalardan farqlari nimalardan iborat?» Avvalombor bu Konstitutsiya o‘zining tub mohiyati falsafasi, g‘oyasiga ko‘ra yangi hujjatdir. Unda kommunistik mafkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham yo‘q. Jamiyki dunyoviy ne‘matlar orasida eng ulug‘i-inson degan fikrni ilgari surdik va shu asosida «fuqaro-jamiat-davlat» o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar oqimida huquqiy yechimni topishga intildik.

Shunday qilib, Konstitutsiya loyihasi matbuotda ikki marta e‘lon qilindi va umumxalq muhokamasidan o‘tdi. Buning yakunlari bo‘yicha komissiya yana bir bor loyihani ko‘rib chiqib Oliy Kengash sessiyasida ko‘rib chiqishga tavsiya etdi. Loyiha Oliy Kengashning sessiyasida moddama-modda muxokama qilinib uzoq tortishuvlar, xilma-xil fikrlar bildirilgan holda qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining Asosiy Qonuni o‘zining tuzilishi, mazmuni jihatidan O‘zbekiston tarixida amal qilib kelgan Konstitutsiyalardan tubdan farq qiladi. 1990 yil 20 iyunda hali Sobiq Ittifoqi mavjud bo‘lgan davrda, O‘zbekiston o‘z Mustaqilligini dunyoga ma‘lum qilib, Konstitutsiyaviy islohotlarni boshlab yuborgan edi. 1978 yilgi O‘zSSR Konstitutsiyasiga ko‘plab o‘zgartirishlar kiritildi. Chunki, bu qonun zamon talablariga javob bermay qolgan edi Respublikaning yangicha yashashga bo‘lgan xohishini bo‘g‘ib, turar edi. O‘ta mafkuralashgan bu Konstitutsiyaga vaqtincha qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilib, yangi Asosiy qonun loyihasini yaratishga kirishildi.

1992 yil 8 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilingan Konstitutsiyasi mustaqil O‘zbekiston demokratik suveren davlatining birinchi Konstitutsiyasi bo‘ldi, mustaqil davlat omillaridan kelib chiqib yaratilganligi bu Konstitutsiyaning o‘ziga xos xususiyati deb hisoblash lozim. Dastlabki, moddasidan tortib to oxirgi 128 moddasigacha u mustaqillik g‘oyasi bilan sug‘orilgan.

2-mavzu: Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari. (2 soat)

REJA:

O'zbekiston Respublikasida hokimiyatning bo'linish prinsipi. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning xalq nomidan hokimiyatni amalga oshirishi. O'zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligi prinsipi va umuminsoniy qadriyatlar.

Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipi tushunchasi va mohiyati. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konstitutsiyaviy asoslari. O'zbekiston Respublikasi – xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ekti. O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplari.

Yurtimizda 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi tomonidan yoqlab ovoz berish orqali qabul qilinganligi unda xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganligidan dalolat bermoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

Referendum ko'p millatli buyuk xalqimizning birdamligi va hamjihatligi, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurishga qat'iy qaror qilganligining ishonchli ifodasi bo'ldi.

Xususan, Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi – ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi hamda o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimining zamonaviy konsepsiyasini hisobga olgan holda, Oliy Majlis, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati o'rtasida vakolatlar qayta taqsimlandi. Joylarda hokimlar va xalq deputatlari Kengashlari vakolatlari taqsimlanishiga asoslangan davlat hokimiyatini tashkil etishning yangi modeli nazarda tutildi.

BIRINCHI BO‘LIM. ASOSIY PRINSIPLAR

I bob. Davlat suvereniteti

1-modda.

O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Davlatning «O‘zbekiston Respublikasi» va «O‘zbekiston» degan nomlari bir ma’noni anglatadi.

2-modda.

Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar.

3-modda.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining milliy-davlat va ma’muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi.

O‘zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo‘linmasdir.

4-modda.

O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatları va an’anaları hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

5-modda.

O‘zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o‘z davlat ramzlari — bayrog‘i, gerbi va madhiyasiga ega.

Davlat ramzlari davlat himoyasidadir.

6-modda.

O‘zbekiston Respublikasining poytaxti — Toshkent shahri.

II bob. Xalq hokimiyatchiligi

7-modda.

Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir.

O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan organlar tomonidangina amalga oshiriladi.

Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o‘zlashtirish, hokimiyat organlari faoliyatini to‘xtatib qo‘yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi.

8-modda.

O‘zbekiston xalqini millatidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi.

9-modda.

Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumxalq ovozigina — referendumga qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasida referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi.

10-modda.

O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin.

Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas.

11-modda.

O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi.

12-modda.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Hech qaysi mafkura davlat mafkurasiga sifatida o'rnatilishi mumkin emas.

13-modda.

O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatiga va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

14-modda.

Davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi.

III bob. Konstitutsiya va qonunning ustunligi

15-modda.

O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo'llaniladi.

Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar.

16-modda.

Ushbu Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasining huquq va manfaatlariga, ushbu Konstitutsiyaning birinchi bo'limida nazarda tutilgan asosiy prinsip va normalarga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinadi. Birorta qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo'lishi mumkin emas.

IV bob. Tashqi siyosat

17-modda.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ektidir.

O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi.

18-modda.

O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin.

Insoniyat taraqqiyoti uchun ulkan imkoniyatlar ochayotgan zamonaviy globallashtirish sharoitlari bir vaqtning o'zida u ilgari duch kelmagan turli, ba'zan kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Xalqaro munosabatlarda o'zaro ishonch va hamkorlikka putur yetkazuvchi, qarama-qarshilik va adolatsiz raqobatning kuchayishiga olib keladigan geosiyosiy manfaatlarning to'qnashuvi global iqtisodiy inqirozga, jahon bozorlarida beqarorlikka, energiya narxlarining

o'zgarishini keltirib chiqaradi. Bu esa deyarli barcha mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tabiiy resurslar uchun kurash esa davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga olib keladi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, jahon iqtisodiyotidagi bugungi tendensiyalar, ayrim mintaqalarda vaziyatning keskinlashuvi, migratsiya jarayonlarining kuchayishi bilan xalqaro jinoyatchilik: odam savdosi, terrorizm, ekstremizm, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi va xavfli yuqumli kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'lmoqda.

Jahon makonining o'zaro chambarchas bog'liqligi va o'zaro bog'liqligi sharoitida bu hodisalar ham shaxsga, ham butun jamiyat va davlatlarga jiddiy zarar yetkazishi mumkin, bu esa davlat va jamiyat boshqaruvida, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda demokratik o'zgarishlarning barqarorlik, xavfsizlik, inson huquq va erkinliklari ta'minlashda naqadar zarur ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Hozirgi zamonning murakkab sharoitida O'zbekiston tashqi siyosatda o'z yo'lini tanladi. Mustaqillik va suverenitetni himoya qilish, mamlakatimizning xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ekti sifatidagi o'rni va rolini yanada mustahkamlash, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekiston atrofida xavfsizlik, barqarorlik va yaxshi qo'shnichilik halqasini yaratish davlat tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishidir. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati Konstitutsiyaga, "Tashqi siyosat konsepsiyasi to'g'risida", "Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi qonunlarga va boshqa huquqiy hujjatlarga, shuningdek, mamlakatimiz qo'shilgan xalqaro konvensiya va shartnomalarga asoslanadi.

"O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning "Tashqi siyosat"17-moddasida: "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ektidir. O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa tamoyillari va normalariga asoslanadi" degan tamoyillar mustahkamlab qo'yilgani shuni tasdiqlaydi.

Shuningdek, yangi tahriridagi Konstitutsiyaning 18-moddasida quyidagi qoidalar belgilangan: "O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosat yuritadi. O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning, uning farovonligi va xavfsizligining oliy manfaatlaridan kelib chiqib, ittifoqlar tuzishi, hamdo'stlik va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi, shuningdek ulardan chiqishi mumkin".

Qolaversa, mamlakatimizda inson huquqlarini ta'minlashga katta ahamiyat berilgan. Bugungi kunda O'zbekiston xalqaro munosabatlarning to'la huquqli

sub'ekti sifatida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalarini qamrab olgan inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga qo'shildi.

O'zbekistonda va boshqa davlatlarda e'tirof etilgan xalqaro huquq tamoyillari va normalari huquqiy tizimning tarkibiy qismi sifatida belgilangan. Bu to'g'ridan-to'g'ri qonunlar, sud qarorlari, ratifikatsiya hujjatlari yoki xalqaro shartnomalarga qo'shilish to'g'risidagi hujjatlarda o'z aksini topadi. Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalari huquq tizimining ajralmas qismi sifatida konstitutsiyaviy darajada e'tirof etilgan bo'lib, bu globalashuv sharoitida davlatning xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarishga tayyorligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquq tizimining ajralmas qismi ekanligi belgilandi. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasi qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo'llaniladi.

Konstitutsiyaga kiritilgan mazkur norma xalqaro hujjatlarda belgilangan umume'tirof etilgan prinsip va normalarni amaliyotga bevosita tatbiq etish, ularni milliy qonunchilikka tatbiq etish va boshqa mexanizmlar orqali ta'minlashni nazarda tutadi.

Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Sloveniya va boshqa bir qator davlatlarning konstitutsiyaviy amaliyotida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalari milliy huquq tizimining ajralmas qismi ekanligi belgilangan.

Konstitutsiyada davlatimizning xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda huquq tizimining ajralmas qismi ekanligining aks ettirilishi davlatning xalqaro nufuzini yanada oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklari nafaqat milliy qonunchilikda belgilangan normalar, balki xalqaro huquq asosida ham himoya qilinishini ta'minlaydi.

Xalqaro huquqning ustuvorligi, birinchidan, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini xalqaro hujjatlarga muvofiq ishlab chiqish va qabul qilish, davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan qarorlar qabul qilishda xalqaro hujjatlar talablariga rioya etilishini ta'minlaydi, ikkinchidan, u qonun hujjatlarida nazarda tutilgan masalalarni hal qilish uchun fuqarolarning davlat organlari bilan munosabatlarida, surishtiruv olib borishda, sud-tergov amaliyotida va boshqa hollarda xalqaro hujjatlar normalaridan foydalangan holda o'z huquqlarini himoya qilishda kafolatlar yaratadi.

Ma'lumki, har qanday davlatning tashqi siyosati birinchi navbatda o'z xalqi manfaatlarini himoya qilish va rag'batlantirishga qaratilgan. Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida mamlakatimizda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, samarali tashqi siyosatni amalga oshirishga qaratilgan maqsadlar respublika davlat hokimiyati organlari faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mamlakatning tashqi siyosatini amalga oshirishda qonun chiqaruvchi organlarning eng muhim vazifalaridan biri tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun qonunchilik bazasini takomillashtirishdan iborat. Qonun hujjatlarini ishlab chiqish yoki ularni takomillashtirishning asosi Konstitutsiyadir.

O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida tashqi siyosiy faoliyatini amalga oshirishda hokimiyat vakillik organlarining imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi. Qonun chiqaruvchi organlar amaliyotida parlament diplomatiyasi kabi mexanizmdan keng foydalanilayotgani buning dalilidir.

O'zbekiston Respublikasining BMT, ShHT, MDH, YeXHT, IHT, TDT va boshqa xalqaro tuzilmalar faoliyatidagi ishtiroki parlament diplomatiyasini amalga oshirishning ishonchli asosidir. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda BMT tuzilmaviy bo'linmalari bilan hamkorlik parlament diplomatiyasi yo'nalishlaridan birining yorqin misolidir.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan tashkil etilgan Maxsus parlament komissiyasi barqaror rivojlanish bo'yicha milliy maqsadlarga erishish borasida hukumat tomonidan belgilangan vazifalarning tegishli vazirlik va idoralar tomonidan bajarilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish yuzasidan tizimli ishlarni amalga oshirmoqda.

Shu bilan birga, belgilangan maqsadlarni amalga oshirish samaradorligini baholash ishlab chiqilgan ko'rsatkichlarga muvofiq amalga oshiriladi. Joriy yilning iyun oyida BRMga erishish yo'lida parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashga bag'ishlangan Buxoro forumi nafaqat parlamentlar va parlamentlararo tuzilmalar o'rtasidagi bunday hamkorlikni kengaytirish, balki BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qildi.

2022-yil 14-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi rezolyusiya qabul qilingani davlatimiz rahbari tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 2020-yildagi 75-sessiyasida ilgari surilgan tashabbusni xalqaro hamjamiyat qo'llab-quvvatlayotganining yorqin dalilidir. Bu milliy parlamentlar salohiyatini mustahkamlash uchun qonun chiqaruvchi organlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

O'zbekiston milliy parlamenti bugungi kunda barcha yaqin va uzoq xorij davlatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikka yo'naltirilgan tinch, ochiq va pragmatik tashqi siyosatni shakllantirish va amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda. Tashqi siyosiy faoliyatda faol ishtirok etishni ta'minlash maqsadida Oliy Majlis palatalari tomonidan 57 davlat parlamentlari bilan ikki tomonlama do'stlik va hamkorlik guruhlarini hamda Yevropa parlamenti bilan hamkorlik bo'yicha parlamentlararo qo'mita tuzilgan.

Parlamentlararo hamkorlik mamlakatlari geografiyasi keng bo'lib, Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Osiyo, Yevropa davlatlari, AQSh, Kanada, Argentinani o'z ichiga oladi. Parlamentlararo guruhlar, komissiyalar, qo'mitalar, kengashlar faoliyati doirasida O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikdagi ikki tomonlama o'zaro hamkorligiga parlament yordamini ko'rsatish masalalarini muhokama qilish bo'yicha muntazam yig'ilishlar o'tkazilmoqda.

Oliy Majlis Parlamentlararo ittifoq a'zosi hisoblanadi, YXHT Parlament Assambleyasi, MDH Parlamentlararo Assambleyasi faoliyatida ishtirok etadi. O'zbekiston parlamenti deputatlari tinchlik, xavfsizlikni saqlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, barqaror taraqqiyotga erishish, iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va zamonamizning boshqa dolzarb masalalarini muhokama qilishda xalq pozitsiyasini ilgari surmoqda.

Markaziy Osiyoni barqarorlik, barqaror rivojlanish va yaxshi qo'shnichilik hududiga aylantirish davlatning eng muhim tashqi siyosiy vazifalaridan biridir. Mintaqada muloqot, konstruktiv hamkorlikni yo'lga qo'yish va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlash bo'yicha ushbu ongli tanlov va qat'iy chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga kirishishning birinchi kunidayoq boshlangan edi. Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik muhiti mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida tomonlarning konstruktiv o'zaro hamkorligiga xizmat qiluvchi yangi geosiyosiy vaziyatni yaratishga xizmat qildi.

Keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasida parlamentimiz mamlakatimiz tashqi siyosatining faol ishtirokchisiga aylandi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, jahon mamlakatlari o'rtasida o'zaro ishonch va hamjihatlikni shakllantirish, muammolarni hal etish, nizolarning oldini olish, xalqaro hamkorlikning huquqiy asoslarini yaratishda parlament diplomatiyasi alohida o'rin tutadi.

Shu yillarda parlament diplomatiyasi geografiyasi kengayib, samaradorligi ortib bormoqda. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda

uzoq muddatli aloqalarni o'rnatish imkoniyatini yaratib, mamlakatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlashga har tomonlama ko'mak beradi. Zero, bugungi kunda mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, faol tashqi siyosat yuritish Oliy Majlis oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.


Bugun parlament milliy manfaatlarni jahon maydonida ilgari surishda xalqaro munosabatlarning faol ishtirokchisi sifatida keng imkoniyatlarga ega bo'lmoqda. Tinchlik va xavfsizlikni saqlash, barqaror taraqqiyotga erishish yo'lida xalqaro va parlamentlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish uchun Oliy Majlisda mustahkam asoslar mavjud.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI


1-mashg‘ulot: Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari. (2 soat)

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqishi va uni qabul qilishdagi ijtimoiy zaruriyat. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya loyihasining tayorlanishi, qabul qilinishi va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Xalqaro huquq normalarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi ifodasi.

1-Topshiriq. 1. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari mazmun va mohiyatlarini Klaster metodi yordamida yoriting.



2-Topshiriq.




«Nima uchun?» chizmasini tuzish qoidalari

1. Aylana yoki to'g'ri to'rtburchak shakllardan foydalanishni o'zingiz tanlaysiz.
2. Chizmaning ko'rinishini - mulohazalar zanjirini to'g'ri chiziqlimi, to'g'ri chiziqli emasligini o'zingiz tanlaysiz.
3. Yo'nalish ko'rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo'lgan yo'nalishingizni belgilaydi.

Amaliy mashg'ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - **“Yozma bahslar”** interfaol usulidan foydalaniladi.

Fikr	Ha	Yo'q	Bu javobni asoslang	Dalil keltiring
Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ishlab chiqish konseptual asoslari.				
Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari.				

**Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli
ko'rsatma va tavsiyalar:**



- “Klaster” metodini o'tkazish bosqichlarida asosan mavzuga oid tayanch tushunchalarga e'tibor qaratiladi
- Tayanch tushunchalar orqali mavzuga oid 5 ta aniq ma'lumot qayd etiladi.
- Ma'lumotlarning ishonchliligi va ahamiyatini ko'rsatish maqsadida foydalanilgan manbalar qayd etiladi.
- Muayyan tushuncha doirasida imkoniyat qadar ko'proq yangi g'oyalarni yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatiladi.

“Тушунчалар таҳлили” методини амалга ошириш тартиби:

- ☐ иштирокчилар машғулот қоидалари билан таништирилади;
- ☐ ўқувчиларга мавзуга ёки бобга тегишли бўлган сўзлар, тушунчалар номи туширилган тарқатмалар берилади (индивидуал тартибда);
- ☐ ўқувчилар мазкур тушунчалар қандай маъно англатиши, қачон, қандай ҳолатларда қўлланилиши ҳақида ёзма маълумот берадилар;
- ☐ белгиланган вақт якунига етгач ўқитувчи берилган тушунчаларнинг тугри ва тулиқ изоҳини уқиб эшиттиради ёки слайд орқали намоёиш этади;

□ ҳар бир иштирокчи берилган тугри жавоблар билан узининг шахсий муносабатини таққослайди, фарқларини аниқлайди ва ўз билим даражасини текшириб, баҳолайди.


Намуна: “Мавзуга оид тушунчалар таҳлили”

Тушунча	Ҳал қилувчи куч	Самараси нимада акс этади	Ёндашувни илгари сурган олимлар
O‘zbekiston Respublikasi davlat suvereniteti prinsipi			
O‘zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligi prinsipi			
Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipi			
O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplari			

“Venn diagrammasi” grafik organayzeri (GO).

Ta'lim oluvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarini shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

GO quyidagi sxema (grafik tasvir)ga ega bo‘lib, topshiriq shu sxema asosida bajariladi:



Quyidagi savollarga javob bering:

1-keys

O'zbekistonning mustaqillikka qadar konstitutsiyaviy tarixi. TASSR, Buxoro va Xorazm xalq sovet respublikalarining Konstitutsiyalari va ularning mustabid tuzumga xos jihatlari ta'riflab bering?

2-keys

O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy islohotlarning hususiyatlari va asosiy bosqichlarini ta'riflab bering?

3-keys

1992 yilgi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasining tayyorlanishi, umumxalq muhokamasidan o'tkazilishi, qabul qilinishi va amalga kiritilishini ta'riflab bering?

4-keys

O'zbekiston Respublikasida hokimiyatning bo'linish prinsipini ta'riflab bering?

5-keys

Davlat organlari va mansabdor shaxslarning xalq nomidan hokimiyatni amalga oshirishini ta'riflab bering?

6-keys

O'zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligi prinsipi va umuminsoniy qadriyatlarini ta'riflab bering?

7-keys

Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipi tushunchasi va mohiyatini ta'riflab bering?

8-keys

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konstitutsiyaviy asoslarini ta'riflab bering?

9-keys

O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplarini ta'riflab bering?


10-keys

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqishi va uni qabul qilishdagi ijtimoiy zaruriyatini ta'riflab bering?


2-mashg'ulot: Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari. (2 soat)

O'zbekiston Respublikasida shaxsning huquqiy holati tushunchasi. O'zbekiston Respublikasida fuqarolik. O'zbekiston Respublikasida inson va fuqaroning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va burchlari tizimi. Shaxsiy huquq va erkinliklar. Siyosiy huquqlar. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar. O'zbekistonda inson hamda fuqaro huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlari. Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari.

1-Topshiriq. 1. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari mazmun va mohiyatlarini Klaster metodi yordamida yoriting.



2-Topshiriq.




«Nima uchun?» chizmasini tuzish qoidalari

1. Aylana yoki to‘g‘ri to‘rtburchak shakllardan foydalanishni o‘zingiz tanlaysiz.
2. Chizmaning ko‘rinishini - mulohazalar zanjirini to‘g‘ri chiziqlimi, to‘g‘ri chiziqli emasligini o‘zingiz tanlaysiz.
3. Yo‘nalish ko‘rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo‘lgan yo‘nalishingizni belgilaydi.

Amaliy mashg‘ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - **“Yozma bahslar”** interfaol usulidan foydalaniladi.

Fikr	Ha	Yo‘q	Bu javobni asoslang	Dalil keltiring
Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ishlab chiqish konseptual asoslari.				
Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari.				

**Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli
ko'rsatma va tavsiyalar:**



- “Klaster” metodini o'tkazish bosqichlarida asosan mavzuga oid tayanch tushunchalarga e'tibor qaratiladi
- Tayanch tushunchalar orqali mavzuga oid 5 ta aniq ma'lumot qayd etiladi.
- Ma'lumotlarning ishonchliligi va ahamiyatini ko'rsatish maqsadida foydalanilgan manbalar qayd etiladi.
- Muayyan tushuncha doirasida imkoniyat qadar ko'proq yangi g'oyalarni yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatiladi.

“Тушунчалар таҳлили” методини амалга ошириш тартиби:

- ☐ иштирокчилар машғулот қоидалари билан таништирилади;
- ☐ ўқувчиларга мавзуга ёки бобга тегишли бўлган сўзлар, тушунчалар номи туширилган таркатмалар берилади (индивидуал тартибда);
- ☐ ўқувчилар мазкур тушунчалар қандай маъно англатиши, қачон, қандай ҳолатларда қўлланилиши ҳақида ёзма маълумот берадилар;
- ☐ белгиланган вақт якунига етгач ўқитувчи берилган тушунчаларнинг тугри ва тулиқ изоҳини уқиб эшиттиради ёки слайд орқали намоёниш этади;
- ☐ ҳар бир иштирокчи берилган тугри жавоблар билан узининг

шахсий муносабатини таққослайди, фарқларини аниқлайди ва ўз билим даражасини текшириб, баҳолайди.

Намуна: “Мавзуга оид тушунчалар таҳлили”

Тушунча	Ҳал қилувчи куч	Самараси нимада акс этади	Ёндашувни илгари сурган олимлар
O‘zbekiston Respublikasida shaxsning huquqiy holati tushunchasi			
Shaxsiy huquq va erkinliklar			
Siyosiy huquqlar			
Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari			

Quyidagi savollarga javob bering:

1-keys

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya loyihasining tayorlanishi, qabul qilinishi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini ta’riflab bering?

2-keys

Xalqaro huquq normalarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi ifodasini ta’riflab bering?

3-keys

O‘zbekiston Respublikasida shaxsning huquqiy holati tushunchasini ta’riflab bering?

4-keys

Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlarini ta’riflab bering?

5-keys

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolikni ta’riflab bering?

6-keys

O'zbekiston Respublikasida inson va fuqaroning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va burchlari tizimini ta'riflab bering?

7-keys

Shaxsiy huquq va erkinliklarini ta'riflab bering?

8-keys

Siyosiy huquqlarini ta'riflab bering?


9-keys

O'zbekistonda inson hamda fuqaro huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlarini ta'riflab bering?

“Venn diagrammasi” grafik organayzeri (GO).

Ta'lim oluvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarini shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

GO quyidagi sxema (grafik tasvir)ga ega bo'lib, topshiriq shu sxema asosida bajariladi:



NAZORAT SAVOLLARI.

1. TASSR, Buxoro va Xorazm xalq sovet respublikalarining Konstitutsiyalari va ularning mustabid tuzumga xos jihatlarini ta'riflab bering?
2. O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy islohotlarning hususiyatlari va asosiy bosqichlarini ta'riflab bering?
3. 1992 yilgi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasining tayyorlanishi, umumxalq muhokamasidan o'tkazilishi, qabul qilinishi va amalga kiritilishini ta'riflab bering?
4. O'zbekiston Respublikasida hokimiyatning bo'linish prinsipini ta'riflab bering?
5. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning xalq nomidan hokimiyatni amalga oshirishini ta'riflab bering?
6. O'zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligi prinsipi va umuminsoniy qadriyatlarini ta'riflab bering?
7. Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipi tushunchasi va mohiyatini ta'riflab bering?
8. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konstitutsiyaviy asoslarini ta'riflab bering?
9. O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplarini ta'riflab bering?
10. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqishi va uni qabul qilishdagi ijtimoiy zaruriyatini ta'riflab bering?

11. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya loyihasining tayorlanishi, qabul qilinishi va uning o'ziga xos xususiyatlarini ta'riflab bering?
12. Xalqaro huquq normalarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi ifodasini ta'riflab bering?
13. O'zbekiston Respublikasida inson va fuqaroning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va burchlari tizimini ta'riflab bering?
14. O'zbekistonda inson hamda fuqaro huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlarini ta'riflab bering?
15. Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlarini ta'riflab bering?

I. GLOSSARIY

Konstitutsiya (lotin. *constitutio* – tuzilish, o'rnatish) – xalq irodasini ifodalovchi, davlat tuzilishi va boshqaruv shakli asoslarini mustahkamlovchi, hokimiyat idoralari faoliyatining tashkil etilishi tartibi va tamoyillarini belgilovchi davlatning asosiy qonuni.

Konstitutsiyaviy prinsiplar – davlatlar konstitutsiyasida mustahkamlangan konstitutsiyaviy huquqiy boshqarish ob'ekti hisoblangan ijtimoiy munosabatlar mohiyatini belgilanishi.

Konstitutsiyaviy tuzum – davlatda amaldagi konstitutsiya va konstitutsiyaviy huquqlar tomonidan o'rnatiladigan hamda muhofaza qilinadigan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy-huquqiy munosabatlar tizimi.

Avtonomiya (muxtoriyat) – umuman olganda, kimningdir ixtiyoriga topshirilgan masalalarni uning o'zi mustaqil ravishda hal etish xuquqi.

Akt - dalolatnoma, xuquqiy xujjat (qonun xujjati, normativ yuridik xujjat, xuquqiy xujjat) yoki tegishli organlar yoxud mansabdor shaxslarning xarakati.

Aktiv saylov xuquqi – fuqaroning deputatlar va mansabdor shaxslar saylovida, referendumda, ovoz berishda ishtirok etishga bo'lgan ikki imkoniyatdan iborat xuquqi.

Asosiy qonun – davlatning konstitutsiyasini tavsiflash uchun ishlash qiladigan tushuncha. A.q. bilan konstitutsiya – umumiy qoidaga ko'ra mushtarak

tushunchalardir. Bu tushunchalar aniq xujjatning nomida foydalaniladi.

Asosiy xuquq va erkinliklar – konstitutsiya atamasida keng foydalaniladigan xamda davlatning konstitutsiyasida mustaxkamlab qo'yilgan inson fuqaro huquqlari va erkinliklarini bildiradi.

Parlament – konstitutsiyaviy mamlakatlarda qonun chiqaruvchi organ.

Konstitutsiyaviy huquq fani – huquqshunoslik sohasini o'rgatadigan fan.

Huquq – davlat tomonidan belgilangan yoki ruxsat etilgan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq-atvor qoidalarining tizimi.

Davlat – jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlar ustidan siyosiy hokimiyat va boshqaruvni tashkil etish. Siyosiy tizimning asosiy muassasasi.

Davlatning asosiy xususiyatlari: 1. Hokimiyatning legitimligi va uni ro'yobga chiqarishga monopoliya. 2. Fuqarolik jamiyati ichida va undan tashqarida munosabatlarni tartibga solib turish uchun maxsus muassasalarning borligi. 3. Hudud va aholining borligi, davlat o'z ta'sirini ana shularga o'tkazadi.

Davlat tuzumi:

1. Qonun chiqaruvchi hokimiyat mahkamasi (parlament, Oliy Majlis, kengashlar, kongress, seym).
2. Ijro etuvchi va farmoyish beruvchi muassasalar.
3. Sud hokimiyati idoralari.

Davlat, quyidagi asosiy vazifalarni ado etadi: xo'jalik yumushlari, tashkilotchilik yumushlari, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini muhofaza etish, nazorat qilish, davlat va jamiyatni muhofaza qilish, tashqi aloqalar, madaniy-tarbiyaviy ishlar.

Jamoat tashkilotlari – odamlar jamoasi bo'lib, ularni mushtarak manfaatlar birlashtirib turadi. Mazkur jamoa ushbu jamiyatni qabul qilingan qonunlar va me'yorlar bo'ysinib, muayyan maqsadlarni ro'yobga chiqaradi.

Jamoat tashkilotining xususiyati:

- tashkilot a'zolari aloqalar va manfaatlarining tizimi;
- ichki tuzilishini bunyod etish usullari;
- qarorlar ishlab chiqish va qabul qilishning shakli va usullari hamda

usullarni amalga oshirish yo'llari.

Jamoat tashkilotlarining turlari (tiplari):

- kuchli g'oyaviy-siyosiy va ma'naviy aloqalar tizimlari bo'lgan tashkilot, ya'ni siyosiy partiyalar;
- muayyan maqsadlar va vazifalar amalga oshirishdan manfaatdor bo'lgan tashkilotlar (kasaba uyushmalari, tashkilotlar va boshqalar);
- muayyan dasturlar yoki xatto ayrim shaxslarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tuziladigan tashkilotlar.

Istiqlol (arabcha – ozodlik, mustaqillik, erkin bo'lish) – inson, millat, davlatning erkin rivojlana olish imkoniyatini ifoda etuvchi tushuncha. „Istiqlol“ so'zi „mustaqillik“ so'zi uchun o'zak hisoblanadi va unga nisbatan birlamchi asos vazifasini o'taydi. Arab tilidan kirib kelgan bu so'zlar asrlar davomida qo'llanilib xalq tushunchasiga singib ketgan.

1991 yil sentabr – Mustaqillik kuni, deb e'lon qilinganidan boshlab O'zbekistonda mustaqil rivojlanishning o'ziga xos va mos yo'l, taraqqiyotning o'zbek modeli tamoyillariga asosan huquqiy demokratik fuqarolik jamiyati barpo etmoqda.

Konfederatsiya – davlatlar to'la adliyaviy va siyosiy mustaqillikni saqlab qolgan holda birlashadilar, markaziy hokimiyat, mushtarak qonunlar, fuqarolik va sud tizimi bo'lmaydi.

Millat – tarixan tarkib topgan barqaror ijtimoiy etnik birlik bo'lib, uning yagona iqtisodiy va ijtimoiy hayoti, umumiy xududi, tili, madaniyati, xulq atvori (psixologiya) mushtarak bo'lishi lozim.

Milliy an'analar – har bir xalqning asrlar davomida vujudga kelgan o'ziga xos madaniyat, nodir qadriyatlari, an'anasi, urf-odatlar mavjud. An'analar tarixiy saboqlardan o'tgan, hayotda sinalgan, ijtimoiy taraqqiyotda yashashga qodir, avloddan - avlodga o'tuvchi ijtimoiy xodisadir. An'analar jamiyat rivojining ustuni, bamisoli hayot va ijod maktabi, yuqoriga ko'tarilishda suyanch, xalqning tarixiy taraqqiyotida erishgan barcha yutuqlarni ifodalovchi va saqlovchi omildir. U garchand shaklan milliy tavsifga ega bo'lsa-da, mazmunan umumbashariy

mohiyatga egadir. Mustaqil O'zbekiston o'zining yangilanish va rivojlanish yo'lida umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ma'naviy meroslar, aqliy foydalanish va uni boyitish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda.

Milliy munosabatlar – millatlarning aloqalari va hamjihatligi tizimi, shuningdek ular mavjudligi va ravnaki jarayonidagi millatlar ichidagi munosabatlari.

Milliy siyosat – davlatni tegishli siyosiy va adliyaviy hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan, millatlar va elatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solib turadigan muayyan maqsadga qaratilgan faoliyat.

Partiya – (lotincha so'z bo'lib, qism ma'nosini anglatadi) sinflar, tabaqalar, ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini ifoda etish uchun tashkil etilgan jamiyatning bir qismi. Partiya mohiyatining anglash uchun uchta yondashuv qabul qilingan:

a) Biror - bir mafkuraviy doktrinaga ixlos qo'ygan odamlar guruhi;

b) muayyan sinf manfaatlarini ifoda etadigan siyosiy tashkilot bo'lib, u ana shu sinfnings yetakchisi bo'ladi;

v) partiyani davlat tizimida ishlaydigan tashkilot sifatida muassasaviy tushunish.

Partiyaning belgilari: siyosiy birlik, hokimiyatga nisbatan faoliyat (asosiylari).

Siyosiy partiyalari turlari:

1. Ko'xna (arxaik) tipdagi partiya (amerika tipi); uyushgan aniq tizimning yo'qligi, faoliyatining davriyligi (odatda saylov mavsumi paytida ishlaydi), a'zolik davlat idoralariga ovoz berish natijalariga ko'ra tayin etiladi, xayr-ehson evaziga ish ko'rish.

2. Parlament tipdagi partiya (yevropa tipi); tashkiliy tizimlarning mavjudligi, muayyan siyosiy doiralarga o'z ta'sirini o'tkazib, o'zini parlament faoliyatiga chorlash, demokratizm negizidagi a'zolik, partiya faoliyatini mablag' bilan ta'minlashning aralash tizimi, ijtimoiy tuzumni o'zgartirmasdan ishlayotgan islohotlar partiyalari.

3. Ilg'or tipdagi partiyalarning aniq tashkiliy tuzilmalarning mavjudligi,

ijtimoiy munosabatlar barcha jabhalariga ta'sir o'tkazish, davlat tizimiga bosh quyish, uyushish va ishlashning demokratik markazlashtirish tamoyillari, partiya faoliyati a'zolik badallari bilan ta'minlanadi.

4. Boshqacha tamoyillar asosida uyushgan partiyalar (allomalar, zukkolar klublari, mason lojalari, xalqaro partiyalar va shunga o'xshashlar).

Siyosiy partiyalarning asosiy turlari:

- monarxiya partiyalari;
- burjua konservativ partiyalar;
- fashistcha, o'ta o'ng partiyalar;
- liberal demokratik partiyalar;
- diniy partiyalar;

- sotsialistik, o'ta so'l, ekstremistik partiyalar, uyushmalar va konfederatsiyalar tarzida ishlaydilar, chunki anarxizm qat'iy tashkilotni tan olmaydi.

Referendum (umumxalq so'rovi) – bevosita xalq hokimiyatining muassasalaridan biri. Hokimiyat idoralari, davlat, jamiyat faoliyati uchun hayotiy muhim ahamiyatga molik bo'lgan masala xususida jami halqning ovoz berishi. O'ziga xos xislati: referendum yakunlari imperativdir, ya'ni ijro etish uchun majburiydir va uzil-kesildir. Referendum birinchi bor 1439 yilda Shveysariyaning Bern kontonida o'tkazilgan edi. Referendum o'tkazish barcha mamlakatlarda ko'zda tutilmagan. Masalan, 23 shtatni istisno etganda, AQShda umumxalq so'rovi o'tkazilmaydi. Sobiq Ittifoqda referendum 1989 yilda bo'ldi. Shu vaqtga qadar umumxalq muhokamalari va so'rovlari bo'lmagan edi.

Siyosiy tuzum. Siyosiy, ijtimoiy tashkilotlar va muassasalar, siyosiy qarorlar qabul qiluvchi idoralar, mafkura va an'analar majmuidirki, shular vositasida jamiyat tashkil etiladi. G'arb siyosatshunosligida siyosiy tizim ko'p hollarda siyosiy madaniyat bilan bir o'ringa qo'yiladi. Siyosiy tizimning unsurlari quyidagilardan iborat:

1. Siyosiy muassasalar va tashkilotlarning kichik tizimi, bularning orasida eng asosiysi davlatdir.

2. Siyosiy rejimda o'z ifodasini topgan siyosiy munosabatlarning kichik tizimi.

3. Qonunlar, huquqiy normalar, mafkuralar va axloq-odobda o'z ifodasini topgan g'oyalar va tamoyillarning kichik tizimi.

Siyosiy rejim – siyosiy hokimiyat davlatning yashashini ro'yobga chiqarish va jamiyatdagi munosabatlarini tartibga solib turish tizimi.

Siyosiy rejimning turlari:

1. Totalitar siyosiy rejim:

a) shaxsiy hokimiyat rejimi;

b) ijtimoiy guruh rejimi.

Bunday rejim fuqarolar jamiyatini, ijtimoiy hayot barcha jabhalarining siyosiy lashuvini rad etadi, shaxsni batamom yot qilib qo'yadi va uni o'ziga bo'ysundiradi.

2. Avtoritar siyosiy rejim:

a) diktatura;

b) byurokratik rejim.

Bu rejimning o'ziga xos jihati: hokimiyat vakillari mavqeining pasayishi, hokimiyatning bo'linmaganligi yoki uning rasman bo'linishi, hokimiyatning byurokratiya qo'lida jamuljam bo'lishi, siyosiy jabxaga boshqa jabhalarga nisbatan ustuvorlik berilishi, qonunchilikning rad etilishi, jazo (repressiv) mahkamaning borligi va uning ta'siri kuchliligi.

3. Liberal siyosiy rejim (asli lotincha so'z bo'lib, ozodlik demak) – bu siyosiy rejimning shunday bir shakli-ki, shaxsga nisbatan davlat yo'li bilan va ijtimoiy yo'l bilan; majbur etishning bir qadar yumshashini anglatadi. Inson huquqlarini, hokimiyatni bo'lishini, ishni o'z ixtiyori bilan tangalab olishni va va erkin raqobatni, sabr-qanoatni (tolerantlik) va boshqalarni e'tirof etadi.

4. Demokratiya (yunoncha so'z bo'lib, xalq va hokimiyat demakdir) – xalqni hokimiyat manbai deb e'tirof etishga, xalqning davlat ishlarini hal etishda ishtiroq etish huquqiga asoslangan va ayni vaqtda fuqarolarga keng qo'lamda huquqlar va erkinliklar berib qo'yiladigan davlat turidir.

Siyosiy madaniyat – siyosiy tizimi tarkibiy qismi bo‘lib, davlat jamoat ishlarini hal etishda, demokratiyani chuqurlashtirishda odamlarning amaliy ishtiroqi va ularning onglik darajasini ifodalaydi, shuningdek ayni vaqtda ma’naviy madaniyatning juda muhim tarkibi uning mafkuraviy dunyoqarashi jihatidir.

Suverenitet – xalq huquqlarining shunday bir ko‘rinishiki, bu mazkur xalqqa mustaqil yashashga, milliy o‘ziga xoslikka, boshqa xalqlarning va o‘z davlatining manfaatlarini hisobga olib, uning ravnaki uchun qulay shart-sharoitlarni taminlashga imkon beradi.

Unitarizm – davlat tuzilishining shunday tamoyiligi, bunda rasman mustaqil bo‘lgan tuzilmalarning huquqlari batamom markaziy hokimiyatga berib quyiladi va mazkur tuzilmalar faqatgina ma’muriy tizimga aylanib qoladi.

Fuqarolik jamiyati – demokratiyaning yuksak darajada rivojlanishi asosiy vujudga keladigan jamiyat bo‘lib, unda davlat va jamiyat boshqaruvi fuqarolar tomonidan to‘liq amalga oshiriladi. Shu tariqa fuqarolarining ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi imkoniyatlardan foydalanishi uchun shart-sharoitlar vujudga keladi.

Fuqarolik jamiyatining eng muhim belgisi fuqarolarning davlat tuzilmalari faoliyati ustidan to‘liq nazoratni amalga oshirishda namoyon bo‘ladi. Bunda fuqarolarning davlat uchun emas, davlatning fuqarolar uchun xizmat qilish tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etadi va har bir fuqaroning jamiyat a’zosi sifatidagi imkoniyatlari to‘liqroq yuzaga chiqadi.

Fuqarolik jamiyatida insonlarning intellektual salohiyati o‘sib, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari kengayib borishiga mos ravishda mustahkamlanib, takomillashishidan iborat uzluksiz jarayon xisoblanadi.

Fuqarolik institutlari – jamiyatda qaror topgan nodavlat tashkilotlardir. Ular muayyan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy, siyosiy faoliyatni amalga oshiradilar. Fuqarolik institutlari tarkibiga jamoat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, mahalla qo‘mitalari, jamg‘armalar va boshqalar kiradi. Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o‘tishda fuqarolik institutlarining roli oshib boradi. Davlat o‘zining

ko'pgina funksiyalarini fuqarolik institutlariga beradi. Fuqarolik jamiyatida fuqarolik institutlari asosiy rol uynaydi.

Federatsiya – yagona ittifoq davlatining bir nechta davlat tuzilmalari yoki milliy davlat tuzilmalaridan tashkil topishi, ayni vaqtda bu tuzilmalar muayyan darajada siyosiy va adliyaviy mustaqillikni saqlab qoladilar.

Etatizm (fransuzcha so'z bo'lib, davlat demakdir) – davlatning jamiyat iqtisodiy va siyosiy hayotidagi mavqegining kuchayishini ta'riflashda qo'llaniladigan atama. Davlatni ijtimoiy taraqqiyotning oliy natijasi va maqsadi deb biluvchi tushuncha. Etatizm g'oyalari ko'pgina siyosiy doktrinalarda ko'zga chalinadi. Kapitalizmga bo'lgan davrda bu g'oyalar asosan absolyutizmni asoslash va himoya qilish bilan bog'liq edi. Etatizm davlat kapitalizmning siyosati sifatida liberalizmga va demokratiyaga qarshi qaratilgan siyosat bo'lib, u davlatning kuchli hokimiyati bo'lishini talab etdi.

O'zini-o'zi boshqarish modellari: 1. Ingliz-sakson modeli mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning eng namunali tipi hisoblanib, unda o'zini-o'zi boshqarish barcha haqiqiy hokimiyat; mahalliy manfaatlari doirasida amal qiladi. 2. Franso'zcha o'zini-o'zi boshqarishda esa hokimiyat (rasmani o'zini-o'zi boshqarishni qiluvchi mahalliy hokimiyat organlari hisoblanadi. 3. Germancha modelda esa davlat boshqaruvi bilan mahalliy o'zini-o'zi boshqarish yagona institut bo'lib uyg'unlashadi.

Hokimiyat. 1. Odamlar katta guruhlarining ijtimoiy munosabatlari shakli; 2. Muayyan ijtimoiy guruhning siyosatda va huquqiy mezonlarda o'z xoxish-irodasini o'tkaza bilish qobiliyati.

Hokimiyat munosabatlarining alomatlar: a) boshqaruvning alohida devoni; b) jamayarga nisbatan majbur etish; v) siyosiy hayotni tartibga solib turishdagi yakkahokimlik; g) boshqa davlatlarga nisbatan hokimiyat idoralarining suvereniteti.

Hokimiyatning legitimligi (lotincha so'z bo'lib, qonuniy, huquqiy degan ma'noni anglatadi) – ushbu atama M.Veber tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, ijtimoiy tartib va siyosiy faoliyatning davlat qonunlariga huquqiy asosligi

demakdir. Shu bilan legitimlik hokimiyatni zo‘ravonlik bilan egallab olishdan farq qiladi. Hokimiyatning legitimligi siyosiy munosabatlar tizimiga barqarorlik baxsh etadi. Chunki huquqiy jihatdan asoslanganlik bu o‘rinda e‘tiqodni, axloq-odobni o‘ldiradi, hokimiyat sub’ektlari esa jamiyat nomidan vakolat organ bo‘ladilar va jamiyat ularni nazorat qilib turadi. Shu tariqa jamiyatning yaxlitligi, ob’ektlarning birligi, siyosat sub’ektlarining hamda hokimiyat munosabatlarining birligi ta‘minlanadi.

Huquqiy davlat – ijtimoiy hayotning barcha sohalarda qonun ustuvorligi, davlatning o‘zi ham uning bilan bog‘liq bo‘lishi shaxsning erkinligi, uning huquqlari va manfaatlari nomusi va qadr-qimmatining daxlsizligi, bularning muhofaza etishi va kafolatlanligi. Davlat va shaxsning o‘zaro ma’suliyati qonuni amalga oshirib ustida nazorat va konstitutsiyaviy kuzatish shakllarining mavjudligi.

Davlatning shakllari:

- Monarxiya;
- Respublika;
- Mustamlaka yoki boshqacha bo‘ysunish;
- Davlatning boshqacharak qurilishi.

Hokimiyatni bo‘lish tizimi – jamiyatni hokimiyatni taqsim etishga qaysidir darajada xosdir. Turli ijtimoiy kuchlar o‘rtasidagi murosai madora bo‘lib, jamiyatning barqarorligiga xizmat qiladi.

VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Ўзбекистон Республикаси Президентининг асарлари

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, – Т., “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд, – Т., “Ўзбекистон”, 2019. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Т., “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т., “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи. // “Халқ сўзи”, 2020 йил 24 сентябрь.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Шанхай ҳамкорлик ташкилоти йиғилишидаги нутқи. “Халқ сўзи”, 2020 йил 10 ноябр.
7. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь.
8. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2022 йил 20 декабрь.

Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., “Ўзбекистон”, 2023.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли Қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 5 июлдаги “Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида”ги 5106-сон Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 11 июлдаги “Олий ва ўрта махсус таълим тизимида бошқарувнинг янги тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4391-сонли Қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 августдаги “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги ПФ- 5789-сонли Фармони.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 23

- сентябрдаги “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 797-сонли Қарори.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 декабрдаги “Иқтидорли ёшларни саралаб олиш тизими ва академик лицейлар фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4910-сонли Қарори.
 8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 1 июндаги “Академик лицейлар раҳбар ва педагог ходимларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги 296-сонли Қарори.
 9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 – 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” тўғрисидаги ПФ-60-сонли Фармони.
 10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 8 майдаги “Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясини амалга ошириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-67-сонли Фармони.

Асосий адабиётлар

1. Саидов А.Х. ва бошқалар Конституциявий ҳуқуқ Дарслик. -Т. «Сомплекс Принт» нашриёти, 2019.
2. Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига шарҳ. Муаллифлар жамоаси – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2012. – 649 б.
3. Хусанов О.Т. Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий ҳуқуқи // Дарслик – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2012. – 564 б.
4. Жаҳон Конституциялари (Жаҳон давлатлари Конституциялари тўплами, 1–жилд). Тузувчилар: У.Тожиhoнов, А.Х.Саидов. Т. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2001. – 457 б.
5. Хорижий мамлакатлар конституциявий ҳуқуқи. Муаллифлар жамоаси. Дарслик . ТДЮИ, 2010. – 610 б.
6. Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига шарҳ. Муаллифлар жамоаси – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2012. – 649 б.
7. Хусанов О.Т. Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий ҳуқуқи // Дарслик – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2012. – 564 б.
8. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik / X.T.Odilqoriyev, O'.X.Muxamedov, B.A.Saidov va boshq. Mas'ul muharrir Sh.T.Ikramov. - Т.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014.
9. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. Т.:Adolat, 2013.

Электрон таълим ресурслари

[http:// akadmvd.uz](http://akadmvd.uz) (Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси)

[http:// lex.uz](http://lex.uz) (Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси)

[http:// eduportal.uz](http://eduportal.uz) (Мультимедия умумтаълим дастурларни ривожлантириш маркази)

[http:// www.connect.uz](http://www.connect.uz) (Ўзбекистон умумтаълим портали)

[http:// uzsci.net](http://uzsci.net) (Илмий таълим тармоғи)

[http:// www.ima.uz](http://www.ima.uz) (Интеллектуал мулк агентлиги)

[http:// www.academy.uz](http://www.academy.uz) (Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси)

[http:// www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) (Ахборот таълим тармоғи)

[http:// uzedu.uz](http://uzedu.uz) (Ўзбекистон Республикаси Халқ таълим вазирлиги)

[http:// www.nuu.uz](http://www.nuu.uz) (Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети)

[http:// www.tsil.uz](http://www.tsil.uz) (Тошкент давлат юридик университети)

[http:// www.tuit.uz](http://www.tuit.uz) (Тошкент ахборот технологиялари университети)

[http:// www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz) (Бухоро давлат университети)